O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

LINGVOMADANIY KODLARNING POETIK FAOLLASHUVI: FAXRIYOR VA ULUG‘BEK HAMDAM SHE’RIYATI QIYOSIDA

POETIC ACTIVATION OF LINGUOCULTURAL CODES: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE POETRY OF FAXRIYOR AND ULUG‘BEK HAMDAM

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/DEHJ6675

Abdug‘afurova Aida Alisher qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti doktoranti
aidakamolova53@gmail.com

Annotation. *This article provides a comparative analysis of linguocultural codes in the poetry of Faxriyor and Ulug‘bek Hamdam. Faxriyor’s poems “Egasiz va xulosasiz” and “Ovloq kecha, muhabbat kechar” from the “Sonetariy” cycle are analyzed in terms of the poetic activation, transformation, and intertextual relations of linguocultural codes. The findings are compared with poems from Ulug‘bek Hamdam’s selected collection Eski dunyo va yangi men. The study employs linguocultural, conceptual, contextual, comparative-typological, and intertextual methods of analysis. Particular attention is paid to the interaction of linguocultural codes with precedent units, metaphor, allusion, and intertextuality. The analysis demonstrates that a cultural unit acquires the status of a linguocultural code when it activates specific cultural knowledge in context and undergoes conceptual and poetic transformation. The study substantiates that the poetic value of a linguocultural code depends on how it is activated and recoded within the context. The combinations Alpomish–Boychibor–Temirqoziq, Tohir–Zuhro, Majnun–Layli, “Valfajr,” o‘tov–teleminora, and musulmon–frak provide illustrative evidence of this process.*

Keywords*: linguocultural code, linguoculturology, metaphor, symbol, precedent unit, allusion, intertextuality, poetic transformation, Faxriyor, Ulugbek Hamdam.*

Til va madaniyat munosabatini o‘rganishda lingvomadaniy kod tushunchasi milliy-madaniy bilimlarning til birliklari orqali faollashuv jarayonini tushuntirishga xizmat qiladi. Madaniy xotira va matn munosabati masalasida Yu.

M. Lotmanning qarashlari alohida ahamiyatga ega. Uning matn haqidagi fikrlariga e‘tibor qaratsak, u matnni jamoaviy madaniy xotira bilan bog‘lovchi konsepsiya deb tushuntiradi, milliy madaniy ma’nolarning matn orqali saqlanishi, uzatilishi va qayta aktuallashuvi jarayonini tushunish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. [Lotman, 2000: 50-58]. Amerikalik psixolog K.Rapayning ta’kidlashicha, “Kodlar ongimizdagi biror-bir tushunchaga bog‘liq bo‘lgan obrazlarni belgilab beradi”, “ma’lum bir madaniyatda o‘rinlashgan obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarur bo‘ladi.” Madaniyatshunoslarning xulosasiga ko‘ra,madaniy kodlar madaniyatni tushunish kalitidir, u biror-bir shaklda kodlangan madaniy axborotni aniqlash imkonini beradi. [Xudoyberganova, 20019: 15]. Bunda lingvomadaniy kodni faqat milliy turmushda uchraydigan predmet, urf-odat yoki geografik nom bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan yetarli emas. Muayyan birlik kod maqomiga ega bo‘lishi uchun u kontekstda muayyan madaniy bilimni faollashtirishi, shu bilim ma’lum madaniy belgini ishga tushirishi va poetik matnda yangi funksional-semantik munosabatga kirishishi lozim. O‘zbek tilshunosligida lingvomadaniy kodlarning shakllanish mexanizmlari, ularning milliy-lisoniy manzaradagi o‘rni va barqaror birliklar bilan aloqasi masalalari izchil o‘rganilmoqda. Muqimovaning tadqiqotlarida ham aynan milliy tasavvur, qadriyat va dunyoqarashni aks ettiruvchi birliklarning kodlovchi tabiati masalasiga e’tibor qaratiladi.

Metafora lingvomadaniy kod faollashuvining muhim omillaridan biridir. Lakoff va Johnson metaforani badiiy bezak emas, mavhum hodisalarni aniq tajriba asosida anglashga xizmat qiluvchi birlik sifatida talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan, lingvomadaniy kodning metaforaga aylanishi natijasida madaniy bilim yangi konseptual maydonga ko‘chadi.

Badiiy matndagi pretsedent birliklar ham alohida ahamiyatga ega. Pretsedent nom, matn, vaziyat yoki ibora ortida jamiyat uchun tanish bo‘lgan madaniy bilim va umumiy xotira turadi. Shuning uchun Alpomish, Boychibor, Majnun, Layli, Tohir, Zuhro kabi birliklarga oddiy atoqli ot deb qarash yetarli emas, chunki ularning ortida syujet, obraz, qadriyat va tarixiy-madaniy assotsiatsiyalar majmuasi mavjud. Pretsedent hodisalar nazariyasida ham nom, matn, vaziyat va ifodaning madaniy xotira bilan bog‘lanishi asosiy belgilar sifatida ko‘rsatiladi.

Intertekstuallik esa matnning boshqa matnlar, diskurslar bilan aloqasini ifodalaydi. Shu sababli pretsedent birlik intertekstual signal vazifasini bajarishi mumkin, biroq har bir intertekstual aloqa pretsedent nom orqali yuzaga kelishi shart emas. Alluziya esa ana shu aloqani ko‘pincha bilvosita, ixcham va ishoraviy

tarzda yuzaga chiqaradi. Intertekstuallik haqidagi zamonaviy tadqiqotlarda ham matnning boshqa matnlar va madaniy diskurslar tarmog‘ida yuzaga kelishi uning muhim xususiyati sifatida talqin qilinadi.

Faxriyor ijodiga oid ilmiy ishlar orasida uning sonetlari poetik qurilishi, metafora va o‘xshatishlari, shuningdek klassik adabiyot bilan dialog hosil qiluvchi intermatnlar va alluziyalar alohida tadqiq etilgan. Jumladan, Faxriyorning “Ovloq kecha, muhabbat kechar” soneti zamonaviy ifoda, kutilmagan o‘xshatish va poetik antitezalar bilan ajralib turishi qayd etilgan. So‘nggi tadqiqotlarda esa uning she’riyatidagi klassik adabiyot bilan aloqani yuzaga keltiruvchi reminissensiya va alluziyalar masalasi ham alohida o‘rganilmoqda. Biroq ushbu tadqiqotlarda lingvomadaniy kodning aynan qanday yo‘l bilan intertekstual, metaforik va ramziy shaklda qayta tashkil topishi hamda buning boshqa zamonaviy shoir ijodi bilan qiyoslanishi asosiy masala sifatida qo‘yilmagan. Mazkur maqolaning yangiligi shu nuqtada namoyon bo‘ladi. Xo‘sh, Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyatida bir xil yoki bir-biriga yaqin madaniy kodlar mavjud bo‘lsa-da, ular nimasi bilan farqlanadi?

Tadqiqot materiali sifatida Faxriyorning “Egasiz va xulosasiz” hamda “Ovloq kecha, muhabbat kechar” she’rlari olindi. Qiyosiy material sifatida Ulug‘bek Hamdamning 2018-yilda nashr etilgan Eski dunyo va yangi men saylanmasidan olingan she’rlardan foydalanildi. Mazkur nashrda shoirning turli yillarda yozilgan she’rlari bilan birga “Yangi inson” dostoni va tarjimalari ham berilgan.

Tadqiqotda besh asosiy metod qo‘llandi:

1. Lingvomadaniy tahlil — birlik ortidagi milliy, diniy, tarixiy, folklor yoki ijtimoiy-madaniy bilimni aniqlash;

2. Konseptual tahlil — madaniy birlik poetik matnda qaysi konseptni faollashtirayotganini belgilash;

3. Kontekstual tahlil — kodning aynan she’r ichidagi vazifasini aniqlash;

4. Intertekstual tahlil — boshqa matn, syujet, obraz, diniy manba va madaniy diskurslar bilan aloqani belgilash;

5. Qiyosiy-tipologik tahlil — Faxriyor va U.Hamdamdagi kodlarning bir xil, yaqin va farqli tomonlarini qiyoslash.

Bu yerda quyidagi tushunchalarni bir-biridan farqlash lozim. Lingvomadaniy kod — madaniy bilimni faollashtiruvchi birlik. Pretsedent birlik — umumiy madaniy xotirada tanish bo‘lgan nom, obraz, syujet yoki matn komponenti. Alluziya — shu madaniy bilimga bilvosita ishora qilish usuli.

Intertekstuallik esa mazkur aloqalarning kengroq tizimidir. Demak, bitta birlik bir vaqtning o‘zida bir nechta maqomni bajarishi mumkin. Masalan, Alpomish — pretsedent birlik; unga murojaat qilish — alluziya; Alpomish obrazining ozodlik, qahramonlik yoki sadoqat konseptini faollashtirishi — lingvomadaniy kodlash; obrazni yangi vaziyatga ko‘chirish esa intertekstual va metaforik transformatsiya hisoblanadi.

“Egasiz va xulosasiz” she’ri lingvomadaniy kodlarning eng ko‘p uchraydigan she’rlaridan biri hisoblanadi. She’r boshidayoq Odam Ato va Havo juftligi orqali diniy-mifologik intertekst faollashadi, ammo bu birliklar insoniyatning ibtidosi, yaratilish va ilk juftlik haqidagi umumiy madaniy xotirani ishga tushiradi. Shu bois ular oddiy atoqli nomlar emas, balki katta mifologik mazmunni ixcham shaklda tashuvchi pretsedent birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Bular diniy rivoyatning yangi obrazlar tizimi sifatida ishlaydi. Keyinchalik Tohir va Zuhro, Alpomish hamda Boychibor, Majnun-u Layli kabi turli davr va turli manbalarga mansub pretsedent juftliklar she’rda yonma-yon keladi. Ayniqsa, mazkur kodlarning pretsedent birliklar, alluziya, metafora, ramz va intertekstuallik bilan birgalikda harakat qilishi Faxriyor poetikasining muhim xususiyatini yuzaga chiqaradi.

She’rda “Tohir” va “Zuhro” birliklari ham alohida o‘rin tutadi. Ular o‘zbek va Sharq madaniy xotirasida mustahkam o‘rin olgan ishqiy-pretsedent obrazlarni faollashtiradi. Shoir “mardikorlikka ketgan Tohir” obrazini yaratish orqali an’anaviy Tohir–Zuhro ishqiy syujetini zamonaviy hayotiy vaziyat bilan tutashtiradi. Bunda pretsedentlik saqlangan holda obrazning ijtimoiy konteksti o‘zgaradi. Zuhro esa yulduz bilan bog‘lanib, ishqiy obrazdan kosmik obrazga ko‘chadi. Shu tariqa klassik ishqiy afsona zamonaviy mehnat migratsiyasi, kutish va ayriliq semantikasi bilan qayta kodlanadi.

“O‘tov” birligi she’rning etnografik-makoniy kodini tashkil etadi. O‘tov turkiy madaniy makon haqidagi bilimni faollashtiradi va she’rda “qaro tun” bilan munosabatga kirishadi. Natijada tun oddiy tabiat hodisasi bo‘lib qolmay, yashash va boshpana makoni sifatida qayta tasavvur qilinadi.

“O‘choq” va “kosov” birliklari ham an’anaviy maishiy madaniyat bilan bog‘liq. O‘choq o‘zbek madaniy tajribasida uy, ro‘zg‘or, olov va tiriklik markazini bildiruvchi semantik maydonga ega. Kosov esa shu o‘choq bilan bog‘liq amaliy tajribani ifodalaydi. Faxriyor ushbu birliklarni “uchqun” va “yulduzlar” bilan munosabatga kiritib, maishiy makon bilan kosmik makon

o‘rtasidagi chegarani yo‘qotadi. Shu nuqtada kodning poetik transformatsiyasi yuzaga keladi: o‘choqdagi olovning qo‘zg‘alishi osmon hodisasiga ko‘chiriladi.

“O‘tov” bilan “teleminora” she’rda yonma-yon keladi. O‘tov an’anaviy turkiy ko‘chmanchi makonni, teleminora esa zamonaviy makonni ifodalaydi. O‘choq, kosov, teleminoraning bir poetik makonda tutashtirilishi an’anaviy–zamonaviy madaniyatlararo bog‘liqlikni hosil qiladi. Bu bog‘liqlik o‘zaro kontrast qilinib, madaniy xotira zamonaviy voqelik bilan qayta biriktiriladi.

She’rning eng kuchli pretsedent kodlaridan biri “Alpomish – Boychibor” juftligidir. Bu ikki birlik o‘zbek dostonchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy xotirani bevosita faollashtiradi va “Alpomish” dostoniga alluziv ishora hosil qiladi. Biroq Faxriyorning mahorati bu yerda oddiy alluziya bilan cheklanmaydi. “Zindonband Alpomish” va “egasiz qolgan Boychibor” orqali epik syujetning tanish qahramonlari yangi vaziyatga ko‘chiriladi. Eng muhim o‘zgarish esa Boychibor kishnashining “narvon”ga aylantirilishidir. Bu yerda kishnash endi shunchaki otning tovushi emas, balki zindondagi qahramonni qutqaruvchi narvon vazifasini bajaradi. Shoirning o‘zi ham folklorshunos Jabbor Eshonqul bilan suhbatida ushbu obrazning “Alpomish”dagi qutqaruv vazifasini eslatib, Boychibor kishnashining narvonga aylanishini ataylab kutilmagan poetik transformatsiya sifatida sharhlagan. Shu suhbatda Faxriyor xalq tili, og‘zaki folklor va o‘xshatishlarni yangi usulda qayta ishlashga alohida e’tibor berishini ta’kidlaydi Demak, pretsedent obrazga asoslangan madaniy kod metafora orqali yangi ma’no kasb etadi. Mazkur misrada madaniy xotira, alluziya, metafora va poetik yangilik bir nuqtada tutashadi.

“Temirqoziq” birligi Kichik Ayiq yulduz turkumining eng ravshan yulduzi, an’anaviy osmon kuzatuvi, yo‘l topish va yo‘nalish belgilash haqidagi madaniy bilimni faollashtiradi. Shu jihatdan Temirqoziq yo‘l, tayanch konseptlari bilan bog‘lanadi. Boychiborning ushbu yulduzga bog‘lanishi epik qahramonlik kodini kosmik kod bilan birlashtiradi.

Qaldirg‘och, suralar va “Valfajr” birliklarining bir kontekstda qo‘llanishi she’rning diniy va tabiat kodlari integratsiyasini namoyon etadi. Qaldirg‘och diniy bilimni o‘zlashtiruvchi mavjudot sifatida tasvirlanadi. “Suralarni yodlatish” orqali insonning Qur’on bilan bog‘liq xotira va tilovat amaliyoti qush obraziga ko‘chiriladi. “Valfajr” birligi esa Qur’oniy intertekstni ishga tushiradi va tongni vaqt konsepti sifatida ifodalaydi. Qaldirg‘ochlarning “Valfajr”ni “a cappella” kuylashi esa diniy, tabiat va musiqaga oid kodlarni bitta poetik tizimga birlashtiradi. Bu holatda intertekstuallik faqat bir manbaga murojaat qilish

shaklida bo‘lmay, turli madaniy diskurslarni birlashtiruvchi unsur sifatida namoyon bo‘ladi.

“Farang musulmonlar” va “frak” birliklarining bir kontekstda tutashishi ham Faxriyor poetikasidagi madaniy kodlarning yorqin ko‘rinishidir. “Musulmon” diniy-madaniy kimlikni, “farang” G‘arb madaniy makonini, “frak” esa G‘arbona kiyim madaniyatini faollashtiradi. Tongning “frak kiyib” qarshi olinishi natijasida tabiat hodisasi antropomorfik obrazga aylantiriladi. Bunda Sharq va G‘arbga xos belgilar qarama-qarshi qo‘yilmay, bitta poetik obraz doirasida sintez qilinadi.

“Majnun va Layli” birliklari esa Sharq mumtoz madaniyatining kuchli pretsedent kodini hosil qiladi. Majnun va Layli nomlari orqali ikki oshiq qahramon, hijron, visol, sadoqat, ayriliq va cheksiz ishq haqidagi butun madaniy syujet faollashadi. Faxriyor bu pretsedent modelni “vaqtni teskari oqizish” tasavvuri bilan bog‘laydi. “Vaqt daryosi” metaforasi orqali ishq vaqtning odatiy oqimini o‘zgartiruvchi kuch sifatida konseptuallashtiriladi. Demak, bu yerda pretsedentlik va metafora bir-birini semantik jihatdan kuchaytiradigan vosita sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

“Kungkay” va “terskay” birliklari esa mahalliy makoniy bilimga tayangan holda milliy makon kodi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu birliklar quyoshga nisbatan yo‘nalish, tomon va joylashuvni belgilash bilan bog‘liq madaniy tajribani faollashtiradi. Shoir “ko‘kka jiyak qilib tikib chiqish” tasviri orqali osmonni matoga, tomonlarni esa tikilayotgan jiyaklarga qiyoslaydi.

Faxriyorning “Ovloq kecha, muhabbat kechar” sonetida ham lingvomadaniy kodlar yanada ixcham shaklda ishlaydi. “Ovloq” birligi o‘zbek makoniy tasavvuridagi odamdan xoli, chekka va pinhoniy joy haqidagi bilimni faollashtirib, ishqiy kechinmaning yashirin makonini yaratadi. “Hijron” esa mumtoz Sharq poetikasining markaziy kodlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir uni kiyim obraziga ko‘chirib, hijronni insonni o‘rab olgan va yechib bo‘lmaydigan holat sifatida tasvirlaydi. “Oy nuridan kiyimlik bichish” bilan “hijronni yecholmaslik” o‘rtasida semantik zanjir yuzaga keladi. Kiyimning inson tanasini o‘rab turishi haqidagi maishiy tajriba ruhiy holat — hijronning tasviriga ko‘chiriladi. Lakoff va Johnson ta’kidlaganidek, abstrakt tajribaning konkret jismoniy tajriba orqali konseptuallashtirilishi metaforaning kognitiv tabiatini ko‘rsatadi. Shu tariqa ruhiy holat kundalik maishiy tajribaga asoslangan metafora orqali konkretlashtiriladi.

“Malak”, “malika” va “dev” birliklari esa diniy, ijtimoiy va mifologik kodlarning bir nuqtada tutashganini ko‘rsatadi. “Malak” yorning pokligi va

g‘ayrioddiy go‘zalligini, “malika” esa yuksak maqom va ulug‘lashni bildiradi. Lirik qahramonning o‘zini “dev”ga aylantiradi. Sonetdagi “lo‘li” va “fol” birliklari xalqona-e’tiqod bilan bog‘liq kodni shakllantiradi. Bu birliklar folbinlik, taqdirni oldindan bilish va noma’lumni talqin qilish haqidagi an’anaviy tasavvurlarni faollashtiradi. Biroq shoir bu madaniy modelni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilmaydi: tushlarda yashiringan yor obrazini hatto folbinlar ham topa olmaydigan darajada sirli qiladi. Shu tariqa folklor va e’tiqodga oid birlik sevgi sirining chegarasizligini ifodalovchi poetik vositaga aylanadi.

Sonetdagi “irim” birligi esa alohida lingvomadaniy ahamiyat kasb etadi. “Qolmoq – mushkul, ketmoqlik – irim” shaklidagi qo‘llanishda “irim” xalqona e’tiqoddagi alomat, belgi va taqdir munosabatini faollashtiradi. Lekin shoir uni o‘zining odatiy semantik doirasida qoldirmaydi: ketishning o‘zi “irim” sifatida qayta belgilanadi. Bunda xalqona e’tiqod modeli lirik subyektning ayriliq oldidagi ruhiy holatini ifodalovchi yangi semantik birlikka aylanadi. Shu tariqa Faxriyorning ushbu ikki she’rida lingvomadaniy kodlar ikki bosqichda namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin. Avvalo, pretsedent nom, diniy birlik, etnografik predmet yoki xalqona e’tiqod orqali muayyan madaniy bilim faollashadi. Keyin esa shu bilim metafora, ramz, o‘xshatish, alluziya yoki boshqa intertekstual aloqa vositasida yangi poetik ma’noga ko‘chiriladi. Demak, Faxriyor poetikasida lingvomadaniy kod tayyor madaniy ma’noni takrorlamaydi, u yangi kontekstda qayta tashkil qilinadi.

Har ikki she’rning qiyosiy tahlili Faxriyor poetikasidagi lingvomadaniy kodlashning ikki muhim xususiyatini ko‘rsatadi. Birinchisi, shoir turli manbalardan olingan madaniy kodlarni bir poetik makonda birlashtiradi. Diniy-mifologik, folklor, epik, etnografik, Sharqona ishqiy va zamonaviy G‘arb madaniyatiga oid kodlar bitta matn ichida yonma-yon keladi. Ikkinchisi, bu kodlar tayyor madaniy ma’noni takrorlamaydi, balki poetik transformatsiya orqali yangidan ma’no hosil qilinadi.

Bu xususiyat Ulug‘bek Hamdam she’riyatidagi lingvomadaniy kodlash bilan qiyoslanganda yanada yaqqol ko‘rinadi. Qiyoslash uchun Hamdamning she’rlaridan aniqlangan kodlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Bunda diniy birliklar — Yaratgan, Tangri, Olloh, Xudo, Jannat, Azroil, banda, qul, gunoh, savob; diniy nutqiy aktlar — duo, iltijo, afv, shukr; tarixiy va pretsedent birliklar — To‘maris, Shiroq, Mashrab, Layli, Tabriziy kabi obrazlar; ishqiy birliklar — hijron, visol; maishiy predmet, aksiologik, gastronomik, rang va oila-qarindoshlik birliklari muntazam uchraydi. Masalan, Hamdamning “Er yigitlar nahot yo‘q

endi?” she’rida To‘maris, Shiroq, Shoh Mashrab kabi tarixiy va diniy-madaniy pretsedent birliklar birgalikda safarbar qilinadi. “Tabriziy” she’rida esa Layli va Tabriziy nomlari, Hamdamning “Seni kutdim” she’rida “hijron — hayot, hijron — o‘limkor” tarzidagi konseptual tenglashtirish uchraydi. Hamdamning ijodida kodlar keng qo‘llanadi, lekin ular ko‘pincha muayyan konsept atrofida takrorlanib, ma’naviy, falsafiy yoki axloqiy umumlashma hosil qiladi. Masalan, “Avlodlar qismati” she’rida ota obrazi “ishonch bog‘i”, “suyangan tog‘i” tarzida berilib, qarindoshlik kodi ma’naviy tayanch va avlodiy mas’uliyat konseptiga olib boriladi. Demak, Faxriyor va U.Hamdam uchun umumiy bo‘lgan eng muhim jihat shundaki, madaniy xotira badiiy mazmunni kuchaytirishdan tashqari yangi konseptni hosil qiluvchi unsur sifatida ishlaydi.

Shu nuqtada ikki shoir o‘rtasidagi asosiy farqni ko‘rish mumkin. Faxriyorning tanlangan she’rlarida lingvomadaniy kod ko‘proq turli madaniy qatlamlarni bir-biriga tutashtirish va kutilmagan poetik obraz yaratish uchun ishlatiladi. Hamdamda esa kod ko‘proq muayyan konseptni chuqurlashtirish va falsafiy-ma’naviy mazmunni umumlashtirishga xizmat qiladi.

Masalan, “hijron” konsepti har ikki shoirda mavjud bo‘lsa-da, uning konseptual ishlanishi bir xil emas. Faxriyor hijronni kiyimga qiyoslab, uning insonni o‘rab turuvchi va yechib bo‘lmaydigan holat ekanini ko‘rsatadi. Hamdam esa hijronni hayot va o‘lim bilan bog‘lab, uni inson mavjudligining ekzistensial holatiga aylantiradi. Demak, bir xil lingvomadaniy kod turli holatlarda turlicha konseptual mazmun hosil qilishi mumkin.

Xuddi shu holat pretsedent birliklarda ham kuzatiladi. Faxriyor Alpomish, Boychibor, Tohir, Zuhro, Majnun, Layli, Odam Ato va Havo kabi birliklar orqali katta madaniy syujetlarni juda qisqa ishora bilan faollashtiradi. Bu birliklar she’rda yangi obrazli bog‘lanishlar hosil qiladi. Hamdamda esa To‘maris, Shiroq, Mashrab, Layli, Tabriziy, Odam Ato kabi pretsedent birliklar ko‘proq tarixiy, ma’naviy yoki falsafiy mazmunni kuchaytiruvchi tayanch sifatida namoyon bo‘ladi.

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, lingvomadaniy kodni badiiy matnda aniqlash faqat madaniyatga oid birliklarni sanab chiqish bilan cheklanmaydi. Uning haqiqiy kodlik xususiyati muayyan birlikning kontekstda madaniy bilimni faollashtirishi, shu bilim asosida ma’lum konseptni yuzaga chiqarishi va poetik matnda yangi funksional-semantik mazmun kasb etishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan lingvomadaniy kod dinamik hodisa bo‘lib, u metafora, ramz, pretsedent

birlik, o‘xshatish, alluziya va intertekstuallik kabi vositalar bilan o‘zaro munosabatda shakllanadi.

Qiyosiy tahlil natijasida Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam ijodida umumiy lingvomadaniy qatlamlar mavjudligi aniqlandi. Har ikki shoir diniy, ishqiy, tarixiy va milliy-madaniy xotiraga murojaat qiladi, pretsedent birliklardan foydalanadi hamda madaniy bilimni poetik mazmunni chuqurlashtirishga jalb etadi. Tahlilning yana bir muhim natijasi shundaki, bir xil lingvomadaniy kod turli shoirlarda bir xil konseptual mazmunni bermaydi. Demak, lingvomadaniy kodning qiymatini uning nominativ shakli emas, aynan qanday kontekstual konseptuallashtirilishi va poetik o‘zgarishi belgilaydi.

Shuningdek, pretsedent birlikning lingvomadaniy kod sifatidagi imkoniyati uning ortida turuvchi umumiy madaniy xotira bilan belgilanadi. Alpomish, Boychibor, Majnun, Layli, Tohir, Zuhro kabi birliklar birgina nom orqali katta syujet va qadriyatlar tizimini faollashtira oladi. Bunda alluziya ushbu madaniy xotirani matnga olib kiruvchi signal, intertekstuallik esa uni boshqa madaniy qatlamlar bilan bog‘lovchi tizim sifatida ishlaydi. Metafora va ramz esa faollashgan madaniy mazmunning yangi poetik shaklga o‘tishini ta’minlaydi. Shu sababli mazkur hodisalar lingvomadaniy kodning sinonimlari emas, balki uning badiiy matndagi faoliyatini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq mexanizmlar sifatida qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyatida lingvomadaniy kodlar umumiy madaniy xotira va pretsedent birliklarga tayansa-da, ularning poetik ishlanishi farqlanadi. Faxriyor kodlarni ko‘proq kutilmagan birikmalar, intertekstual aloqa va metaforik transformatsiya orqali yangi obrazga aylantiradi. Hamdamda esa kodlar ma’naviy-falsafiy va konseptual mazmunni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Demak, lingvomadaniy kodning poetik qiymati uning o‘zidan ko‘ra, kontekstda qanday faollashishi va qayta kodlanishi bilan belgilanadi. Shuningdek, qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, shoirning individual poetik o‘ziga xosligi ko‘pincha qaysi madaniy birlikdan foydalanganida emas, balki shu birlikni qanday qayta kodlaganida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1.Alefirenko, N. Lingvokulturologiya: tsennostno-smyslovoe prostranstvo yazyka: uchebnoe posobie. – Moskva: Flinta; Nauka. 2010. – B. 136.

2.Bagaeva, D. V., Gudkov, D. B., Zaxarenko, I. V., & Krasnyx, V. V. Pretsedentnoe imya i pretsedentnoe vyskazyvanie kak simvoly pretsedentnyx fenomenov // Yazyk, soznanie, kommunikatsiya. 1997. – № 1. – C. 82–103.

3.Hamdam, U. Eski dunyo va yangi men: she’riy to‘plam. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2018.

4.Lotman, Yu. M. Semiosfera. – Sankt-Peterburg: Iskusstvo-SPB.2000. – B. 50–58.

5.Mahmudova, N. O‘zbek xalq topishmoqlarida lingvomadaniy kodlarning namoyon bo‘lishi // Nauka i innovatsiya. 2025. – 3(25).

6.Maxamatova, M. O‘zbek xalq maqollarida lingvomadaniy kodlar // Zamonaviy fan va tadqiqotlar. 2025.

7.Maxmaraimova, Sh. O‘zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi. – Samarqand. 2020.

8.Muqimova, Z. R. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o‘rni (o‘zbek tili barqaror birliklari misolida). – Toshkent: Bookmany print. 2024. – 216 b.

9.Usmanova, Sh. Lingvokulturologiya: darslik.

10.Xudoyberganova, D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin. 2015

11.Xudoyberganova, D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan. 2013.

12.Xudoyberganova, D.. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent. – № 3. 2019.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**